



XOTIRANOMADA QODIRIY SHAXSIYATI VA IJODINING TALQIN ETILISHI

Ubaydullayev Normuhammad

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
E-mail: normuhammadubaydullayev@gmail.com*

Annotasiya. Abdulla Qodiriy badiiy-estetik olamining o‘ziga xos jihatlari I.Sulton, M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, U.Normatov, B.Karim kabi adabiyotshunoslarning chuqur va betakror talqinlari negizida e’tirof etilgan bo‘lsa-da, bu benihoya ulkan qalb egasining shaxsiy hayotining hali biz anglamagan jihatlari Habibullo Qodiriyning “Otam haqida”gi kabi memuardagidek batafsil yoritilgan emas. Mana shu tomondan olib qaraydigan bo‘lsak, badiiylarning eng muhim shartlari – shaxs va ijod mas’uliyati inson fenomeni va uning mangu hayot bulog‘idan suv ichgani, hamda odamiylarning yuksak fazilatlarini bilan uyg‘un holda tarannum etilishi H.Qodiriyning izlanishlarida boshqacha ranglarda jaranglaydi.

Kalit so‘zlar: *biografik metod, xotiralar, biografiya, tarjimai hol, ijodkor shaxsi, hujjatlilik, haqqoniylik, badiiy haqiqat va hayot haqiqati.*

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛИЧНОСТИ И ТВОРЧЕСТВА КАДЫРИ В МЕМУАРАХ

Аннотация. Хотя уникальные аспекты художественно-эстетического мира Абдуллы Кадыри были признаны на основе глубоких и уникальных интерпретаций таких литературоведов, как И. Султан, М. Кошжонов, О. Шарафиддинов, Н. Каримов, У. Норматов и Б. Карим, аспекты личной жизни этой невероятно щедрой души, которые мы еще не поняли, не освещены так подробно, как в мемуарах Хабибулло Кадыри «О моем отце». С этой точки зрения важнейшие условия художественности — ответственность личности и творчества, феномен человека и его питье из вечного источника жизни, прославление высоких качеств человечества — резонируют в исследованиях Х. Кадыри разными красками.

Ключевые слова: *биографический метод, мемуары, биография, автобиография, творческая личность, документальность, подлинность, художественная правда, жизненная правда.*

INTERPRETATION OF KADIRIY'S PERSONALITY AND WORK IN THE MEMOIR

Annotation. Although the unique aspects of Abdulla Qodiriy's artistic and aesthetic world have been recognized on the basis of deep and unique interpretations by literary scholars such as I. Sultan, M. Qoshjonov, O. Sharafiddinov, N. Karimov, U. Normatov, B. Karim, the aspects of the personal life of this extraordinary soul that we have not yet understood are not covered in as much detail as in Habibullo Qodiriy's memoirs, such as "About My Father". If we look at it from this perspective, the most important conditions of art - the glorification of the individual and creative responsibility as a human phenomenon and its drinking from the eternal spring of life, and the high qualities of humanity, in harmony with them, resonate in H. Qodiriy's research in different colors.

Keywords: *biographical method, memoirs, biography, biography, creative personality, documentary, authenticity, artistic truth and the truth of life.*

KIRISH.

“O‘tkan kunlar” romani va undagi qahramonlarning ruhiy kayfiyatini chuqur o‘rganib, tahlil qilgan Prof. H.Umurov: “Inson ruhiyatini tahlil qilish, uni chuqur tushunish va tasvirlash mahorati adabiyotning asosiy mohiyatini belgilovchi xususiyatlardan biri bo‘lib, bu darajaga ko‘tarilishi birdaniga yuz bermagan. Adabiyotning turli rivojlanish bosqichlarida bu muammo turlicha tushunilgan. Masalan, Aristotelning ‘Poetika asarida qayd etilishicha, badiiy asarning asosiy belgisi tashqi hodisalarning tasviridir, xarakter esa tashqi hodisalar tasviridan keyingi hodisadir. Agar ijodiy metodlar va ularning estetikasi nuqtayi nazaridan psixologizm problemasiga yondoshsak, bu masalaning zamon va davr talabiga muvofiq yanada realroq va yanada qabariqroq bo‘lib borganligini ko‘ramiz”[1, 12], degan fikrlarni ifoda etadi. Binobarin, badiiy psixologizm har qanday asarning sujetini va kompozitsiyasini bir muvozanatda tutib turadigan, voqelikning ich-ichidan yoritib turuvchi ruh va estetik zavqning pafosini oshiradigan vositalardan biri ekanligi ayonlashadi:

“Ba’zi kishilar biron masala to‘g‘risida mendan maslahat yoki izoh so‘rab qolishadi. Menda esa so‘ragan masala haqida ma’lumot yo‘q yoki bo‘lsa ham darhol o‘ylab epaqali bir javob qilishga hozir emasman. Buning ustiga javob kutuvchining tikilib qarab turishi meni yana ham shoshirib, fikrimni chuvlashtirib qo‘yadi... Shu holatda birdan ixtiyorsiz ravishda bir so‘z aytib yuboraman... Javobga qiynalayotganimni sezib turgan qarshimdagi shaxs esa ajablanganday menga qaraydi. Chunki javobim negadir kutilmaganda, o‘rinli, ma’noli bo‘lib chiqadi...

– Hayronman, - degan edilar dadam yana bir oilaviy suhbatda javoblanib so‘zlab, – ba’zan kechasi uyqumda quloqlarim tagida qandaydir mashq chalinganday bo‘ladi. Mashq ba’zan hazin, ba’zan sho‘x, ba’zan qarsak bazm bo‘layotganday eshitiladi. Nimadir meni qitiqlaganday, kuldirayotganday bo‘ladi-da, uyg‘onib ketaman. Atrofimda hech narsa yo‘q,

yana ko‘z yumaman. Yana shu mashq, shu bazm eshitiladi. Uyqum o‘chib, chiroq yoqib ishga o‘tiranman...”[2,60].

Keltirilgan lavhada Abdulla Qodiriy o‘zining ish jarayonidagi xarakter qirralarini gapirib berarkan, uning zakiyligini ham, donishmandligini ham o‘z fel’-atvoridagi chinakam insoniy fazilatini ham qayta ko‘z o‘ngimizda gavdalantira olamiz. Bu voqelik Qodiriy hibsga olinmagan, o‘zi haqida turli mish-mishlar bolalab yurgan kezlarga to‘g‘ri keladi. Ayni damda, o‘zining o‘zi haqidagi tugal xulosalarni ham chamalashga imkon beradi. Psixik jarayon shunday olovdirki, unda ham g‘azab, ham shafqat, ham shodlik, ham qayg‘u qorishib, bir butun organizmning mohiyatini tashkil qilishi mumkin. Xotiranomaning umumiy psixologik tomoni ham shu yo‘sinda dalolatlanib, hayotning puchmoqlarigacha kirib borishga keng imkon yaratadi. Mavjudlik jumbog‘i, sabab va oqibat falsafasining tizgin bir qiyofasi Qodiriy umumiyatining ajralmas qismlaridir desak, shubha uyg‘otmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Yozuvchi X.Do‘stmuhammad “Yolg‘iz” nomli hujjatli qissasida Qodiriyning ong osti va ong shuuridagi bir voqelikni badiiy to‘qima negizida shunday gavdalantiradi. Deylik, Qodiriy hibsga olingan kezlari. U shu qadar farzandlarini sog‘inadiki, qo‘qqisdan “Rostgo‘y” nomli ertakni o‘g‘li Habibullo Qodiriy va qizi Nazifaga gapirib beradi. Bu voqelik faqat va faqat hibsdan va nima sababdan tutqunlikda o‘tirganini bilmagan Qodiriyning miyasida kechadi:

“Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim o‘tgan zamonda, yo‘q, ayni bizning zamonda, Toshkent degan tomonda, shaharning Eshonguzar otliq deyrasida mulla Rostgo‘y degan odam yashagan ekan. Mullaligi uchun rostgo‘ymi, rostgo‘yligi mullaligidanmi – bilib bo‘lmas ekan. Bolalikdan ko‘p maktab ko‘rgan, xat-savodli amaki ekan. Ko‘rgan-eshitgan voqealaridan turfa maqolalar yasab tashlayverar, yozganlarini dam gazit-dam jurnallarda bostirishni odat qilgan ekan. Uning yozganlarini odamlar talashib-tortishib o‘qiydirgan bo‘lishibdi. Bunga sayin Rostgo‘y amaki g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shilar, qancha ko‘p rost gapni yozsam odamlar o‘qigani sayin bilimi oshadi, bilimi oshgani sayin fikri-zehni taraqqiy topadi, bunga sayin yashash tarzi yangilanadi, deb qattiq ishonar ekan. Matbuot joni-dili va birdan-bir ishongani-inongani ekan.

Xullas, kunlardan bir kuni mulla Rostgo‘y achchiqlanib yura-yura mardumi avomning fikr-o‘yiga ko‘rsatarmikin, odamlarni g‘aflat uyqusidan uyg‘otarmikin degan umid-istakda “Yig‘indi gaplar” degan shapaloqdekkina maqola yozibdi. Qattiq yozibdi, achitib-o‘ymalab oladigan qilib yozibdi. Kinoya va pichinglarni qalashtirib yozibdi. Maqola...”[3, 79-80].

Yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad “Yolg‘iz” nomli hujjatli qissa yozarkan, Qodiriyning hibsga tushganidan to uning otuvga hukm qilingan choqqacha bo‘lgan, shu oraliqda unga tuhmatlari bo‘htonlar yog‘dirgan davr kayfiyatini, g‘animlarning unga nisbatan bo‘htonlarini, xusumatini juda katta mahorat bilan bitadi. Hujjatli qissaning (biografik) jihatlari janriy-kompozision o‘ziga xosligi haqida so‘z borganda, avvalo, inson ruhiyatining benihoya iztiroblari, g‘am-qayg‘ulari, 1926 yilda boshlangan g‘ayriliklarni yuksak mahorat bilan sintezlay oladi. Sh.Rizayev qissaga so‘z boshi yozarkan qissani “Dardnoma” deb nomlasa ham

muallif hech narsa yutqazmaydi, deb o‘zining adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan yuksak bahosini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Prof.Sh.Rizayev qissa so‘zboshisida shunday mulohazalarni bayon qiladi:

“Qissani o‘qib, kami elliklarcha “yolg‘iz” degan so‘zga duch kelasiz, oxirroqda faqat fardlik aylanadi qahramon tilida. Nega buncha ko‘p sarlavhaga chiqqan bu so‘z? Nima, zaiflik, ijod nochorligimi bu yo mahorat yetishmasligimi? Yo‘q, bari bor, mahorat ham o‘lipti-da yarim asrda toblanmasa, gap shundaki, elliklar chamasi kelgan “yolg‘iz”ning yolg‘iz ta‘rifi yo‘q, necha o‘rinda o‘zi azalan iniqlovchi bo‘lib keladigan so‘z (yolg‘iz odam, yolg‘iz ayol, yolg‘izoyoq yo‘l...) o‘zi endi otga aylanib, aniqlovchi bilan keladi: Qodiriy – adabiyotda yolg‘iz, “Mushtum”da yolg‘iz, achitib zaharxanda so‘z aytishda yolg‘iz, kamerada yolg‘iz, qalami o‘tkirligi, kuyunchakligi bois yolg‘iz, “tushungan odam – tushunmaganlar oldida yolg‘iz” va hakoza. Ana shu o‘nlarcha sifatli “yolg‘iz”larning ta‘rif-tafsilotlarini bera olib, Abdulla Qodiriy degan betakror yolg‘iz hodisa – yolg‘izlik mohiyatini ochadi muallif. Uning ulug‘ligi, buyukligini ana shu yolg‘izlik rakurslarida inkishof etib boradi”[4,8].

XULOSA.

Lavhadan bilish mumkinki, X.Do‘stmuhammad “Otam haqida”gi xotiranomani sinchiklab o‘rgangan. Har ikki asarni birlashtirib turuvchi yagona estetik markaz – Abdulla Qodiriy shaxsiyati va uning ruhiyati, xarakteridagi ulug‘vorlikdir. Buni boshqacha aytganda, Shaxsning boricha botinidagi og‘riqlarini, iztiroblarini, xayolidan o‘tkazayotgan juda katta umuminsoniy, millat haqidagi yurt to‘g‘risidagi qayg‘ularini juda katta hurmat, ixlos bilan bitgan Xurshid Do‘stmuhammad. Mana shu qissaning dunyoga kelishiga, haqiqatdan ham Abdulla Qodiriyning o‘g‘il tomonidan yozilgan xotiralar hissasi benihoya kattadir. Hayotning puchmoqlarigacha kirib tasvirlash, Qodiriy shaxsiyatidagi o‘shish-o‘zgarishlarni, **“Yig‘indi gaplar”**dan oziqlangan voqelikni ana shu tariqa yorqin ranglarda namoyon etilishi yuqoridagi mulohazalarimizni to‘laqonli dalolatlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Умуров Х. Танланган асарлар. –Т.: Фан, 2007. – Б.12.
2. Ҳабибулло Қодирий. Отам ҳақида. – Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.– Б.60.
3. Хуршид Дўстмуҳаммад. Ёлғиз. –Т.: Машхур-Пресс, 2019. –Б.79-80.
4. Китобдаги сўз боши. Ш.Ризаев. – Б.8.
5. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 546 б.
6. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 560 б.
7. Носиров Ў. Ижодкор шахс, бадиий услуб, автор образи. -Т.: “Фан”, 1981. – Б.75.